



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	



TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Alimov Umid O'ktambayevich

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Chakana biznes departamenti direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida tijorat banklarining chakana xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank xizmatlari bozorida raqobat kuchayishi, mijozlar xulq-atvorining o'zgarishi, fintech va neobanklar kabi yangi ishtirokchilarning kirib kelishi natijasida shakllanayotgan yangi talablar asosida tijorat banklarining chakana segmentdagi biznes-modellarini diversifikatsiya qilish zarurati asoslangan. Maqolada raqamli ekotizimlar, mobil ilovalar, masofaviy xizmat ko'rsatish texnologiyalari, open-banking infratuzilmasi va sun'iy intellektga asoslangan ma'lumotlar tahlilidan foydalanish orqali chakana xizmatlar samaradorligini oshirish strategiyalari taklif etiladi. Shuningdek, banklarning ichki jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar uchun personalizatsiyalangan moliyaviy mahsulotlar yaratish, onlayn kreditlash, QR-to'lovlar, instant-payments kabi tezkor to'lov mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha takomillashtirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari transformatsiya jarayoni sharoitida tijorat banklari chakana xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va mijozlar uchun qulay, xavfsiz va innovatsion moliyaviy yechimlar yaratishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: transformatsiya jarayoni, tijorat banklari, chakana bank xizmatlari, raqamli bank xizmatlari, fintech, raqamli transformatsiya, mobil banking, open banking, moliyaviy inklyuziya, mijozlar tajribasi, raqamli ekotizim, bank biznes modeli, masofaviy xizmat ko'rsatish, innovatsion to'lov texnologiyalari, instant payments, QR-to'lovlar, onlayn kreditlash, bank raqobatbardoshligi.

Abstract. This article analyzes modern directions and practical mechanisms for developing retail services of commercial banks amid the ongoing digital transformation processes in the banking system. The study substantiates the need to diversify business models in the retail segment of commercial banks, driven by increasing competition in the banking services market, changes in customer behavior, and the emergence of new players such as fintech companies and neobanks. The article proposes strategies to improve the efficiency of retail services through the use of digital ecosystems, mobile applications, remote service technologies, open-banking infrastructure, and data analytics based on artificial intelligence technologies. It also highlights ways to enhance internal banking processes, develop personalized financial products for customers, expand online lending, QR payments, instant payments, and other fast payment mechanisms. The results of the study have scientific and practical significance in increasing the competitiveness of retail services of commercial banks, expanding financial inclusion, and providing customers with convenient, secure, and innovative financial solutions in the context of transformation.

Key words: transformation process, commercial banks, retail banking services, digital banking services, fintech, digital transformation, mobile banking, open banking, financial inclusion, customer experience, digital ecosystem, bank business model, remote service delivery, innovative payment technologies, instant payments, QR payments, online lending, banking competitiveness.

Аннотация. В данной статье анализируются современные направления и практические механизмы развития розничных услуг коммерческих банков в условиях происходящих процессов цифровой трансформации банковской системы. В исследовании обоснована необходимость диверсификации бизнес-моделей коммерческих банков в розничном сегменте на основе усиливающейся конкуренции на рынке банковских услуг, изменения поведения клиентов, а также появления новых участников, таких как финтех-компании и необанки. В статье предложены стратегии повышения эффективности розничных услуг посредством использования цифровых



экосистем, мобильных приложений, технологий дистанционного обслуживания, инфраструктуры open banking и анализа данных, основанного на технологиях искусственного интеллекта. Также освещены направления совершенствования внутренних процессов банков, разработки персонализированных финансовых продуктов для клиентов, расширения механизмов онлайн-кредитования, QR-платежей, instant-payments и других быстрых платежных инструментов. Результаты исследования имеют научно-практическую значимость в повышении конкурентоспособности розничных услуг коммерческих банков, расширении финансовой инклюзии и создании удобных, безопасных и инновационных финансовых решений для клиентов в условиях трансформации.

Ключевые слова: процесс трансформации, коммерческие банки, розничные банковские услуги, цифровые банковские услуги, финтех, цифровая трансформация, мобильный банкинг, open banking, финансовая инклюзия, клиентский опыт, цифровая экосистема, бизнес-модель банка, дистанционное обслуживание, инновационные платежные технологии, instant payments, QR-платежи, онлайн-кредитование, конкурентоспособность банков.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliya bozorlarida bank tizimining modernizatsiya jarayonlari keskin jadallashgani tijorat banklari strategik rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlari segmenti tijorat banklari uchun sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotgan strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Mazkur segmentning ustunligi, avvalo, jismoniy shaxslar sektori korporativ mijozlarga nisbatan kengroq bozor sig'imi, yuqori o'sish sur'atlari va barqaror daromad manbai bilan ajralib turishi bilan bog'liqdir. Shu bois chakana xizmatlarni rivojlantirish nafaqat banklar rentabelligini ta'minlash, balki moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, tijorat banklari "eng zamonaviy xizmatlarni ko'rsatib, har bir mijozning ko'ngliga yo'l topa oladigan, uni o'ziga jalb etish uchun raqobat qila oladigan" tizimga aylanishi lozim. Bank-moliya tizimini yuzaki yoki rasmiyatchilikka asoslangan islohotlar emas, balki mazmunan chuqur transformatsiya qilish, uni zamonaviy metodologiyalar va innovatsion yechimlar asosida boshqariladigan sohaga aylantirish vazifasi kun tartibiga qo'yilgan. Bu yondashuv chakana xizmatlar segmentida sifat jihatidan yangi talablar va ustuvor yo'nalishlarni shakllantirmoqda. [1]

Raqamli transformatsiya jarayonining tezlashuvi, fintech texnologiyalarining keng tarqalishi, mijozlar istak va ehtiyojlarining keskin o'zgarishi tijorat banklaridan chakana xizmatlar modelini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yuqori darajali personalizatsiyaga asoslash, tezkor to'lov xizmatlari va raqamli ekotizimlarga moslashish bugungi kunda banklar oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, chakana bank xizmatlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tadqiq etish va ularni amaliy mexanizmlar bilan boyitish bank tizimi transformatsiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda kechayotgan bank tizimi islohotlari fonida tijorat banklarining chakana xizmatlarini modernizatsiya qilish jarayonini ilmiy jihatdan o'rganish ushbu segmentning rivojlanish istiqbollarini asosli belgilash, transformatsiya jarayonining samarador omillarini aniqlash va innovatsion yechimlarni taklif etish imkonini beradi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Chakana bank xizmatlariga yuridik ravishda aniq ifoda etib ta'rif berish muammoli masala hisoblanadi. Bank xizmatlarining yo'naltirilish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, "Bank chakana xizmatlari - bu jismoniy shaxslarning muayyan bank mahsulotlari va operatsiyalariga doir shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj hamda talablarini qondirishga qaratilgan xizmatlar majmui sifatida tavsiflanadi". Ushbu xizmatlar tijorat banklari tomonidan aholiga taklif etiladigan moliyaviy operatsiyalar yig'indisidan iborat bo'lib, ularning asosiy xususiyati keng ommaga yo'naltirilganligi va birlamchi iste'molga mo'ljallanganligi bilan korporativ bank xizmatlaridan farqlanadi. Bugungi kunda yetakchi iqtisodiy adabiyotlarimizda bank xizmatlari, mahsulotlari va operatsiyalari tushunchalari qo'p uchramoqda. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslari, mohiyati, turlari va roli mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida u yoki bu jihatdan o'rganilgan.

Xususan, N.V. Keshenkova chakana bank xizmatlarini standartlashtirilgan, bank operatsiyasi orqali tashkil etiladigan, bank mijozlarini ommaviy tarzda maxsus bank tovarlari va mahsulotlari bilan ta'minlash jarayonini yuridik jihatdan rasmiylashtirish jarayoni deb tushuntiradi [2]. Ushbu ta'rifga ham bizda ayrim e'tirozlar bo'lib, nazarimizda bank xizmatlarining barchasida ham yuridik rasmiylashtirish jarayoni vujudga kelmaydi. Ayniqsa, bu holat masofaviy bank xizmatlarining barchasida ham amalga oshirilmaydi. A.S. Goncharuk esa o'zining tadqiqot ishida quyidagi mualliflik ta'rifini berib o'tadi: chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq



bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir [3].

Rossiyalik olimlardan A.M. Tavasieva, V.A.Perexojievlar esa, bank mahsulotiga mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish yo'llarini ham kiritadilar[4]. Yuqoridagi iqtisodchilardan farqli o'laroq A.N.Ivanov bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo'yicha mijoz talabini qondirish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari to'plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritgan [5]. Bank xizmatlari tushunchasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu tushuncha ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Biz o'zimizning ilmiy tadqiqot ishimizda ba'zi iqtisodchi olimlarning fikrlarini ko'rib chiqishni va o'z yondashuvimizni shakllantirishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Masalan, iqtisodchi olim Ye.F.Jukov bank xizmatlari tushunchasiga faqat moliyaviy xizmatlarni kiritgan, u bank asosan operatsiya bajaradi deb hisoblaydi. Bank operatsiyalarini aktiv va passiv operatsiyalarga bo'lib, bankning moliyaviy xizmatlariga lizing, faktoring, forfeyting va trast operatsiyalarni kiritadi [6].

G.N. Beloglazova va A.M. Tavasievalar bank xizmati asosida operatsiya yotadi, ya'ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijozi talabini qondiradi, degan qarashni ilgari suradi [7].

S.V. Galiskayaning qarashi ham yuqoridagi olimlar qarashlariga mos kelsada, faqat ulardan farqli o'laroq, u bank xizmatlari aktiv va passiv operatsiyalarni o'z ichiga oladi va bank xizmati ob'ekti bo'lib kapital hisoblanadi, degan fikrni o'rtaga tashlagan [8]. Ushbu fikrga to'laqonli qo'shilib bo'lmaydi deb hisoblaymiz, chunki banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan ayrim xizmatlar aktiv ham, passiv ham operatsiyalar qatoriga kirmaydi. Sh.Z. Zokirov o'zining dissertatsion tadqiqotida «Chakana bank xizmatlari kelishilgan harakatlar majmui bo'lib, uning natijasida mijozning shaxsiy ehtiyojlari uchun pul mablag'laridan foydalaniladi» deydi [9]. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, bu ta'rifga to'laqonli qo'shilmaymiz, chunki ayrim bank xizmatlarida pul mablag'lari harakati kuzatilmaydi. Shunga o'xshash ta'rifni yana bir rossiyalik olim o'z ilmiy ishida keltirib o'tgan. Ye.A. Vinokurova o'zining tadqiqot ishida chakana bank xizmatlari va chakana bank mahsulotlari tushunchalariga ta'rif bergan. Uning fikricha, «Chakana bank xizmatlari bu bir nechta bir-biriga bog'liq bo'lgan chakana bank operatsiyalari bo'lib, uning natijasida mijozning ehtiyojini qondirish uchun pul mablag'lari harakati yuzaga keladi. Chakana bank mahsulotlari jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan tartibga solingan va standartlashtirilgan chakana bank xizmatlari to'plami hisoblanadi» [10].

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini, balki moliyaviy tizimni ham tubdan o'zgartirmoqda. Shuning uchun ham transformatsiya jarayonida tijorat banklari chakana xizmatlarini takomillashtirish masalalari mamlakat moliyaviy barqarorligi, bank tizimining raqobatbardoshligi, aholining moliyaviy inkluziyasini kengaytirish hamda umumiy raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini ta'minlash nuqtai nazaridan yuqori darajadagi ilmiy va amaliy dolzarblik kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida transformatsiya jarayonida tijorat banklari chakana xizmatlari va ularni rivojlantirish yo'llari hamda tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tilgan. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari chakana xizmatlarini rivojlantirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayoni strategik ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiy hayotining barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish hamda to'lov tizimlarini modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekiston YalMining o'sishiga o'rtacha 1,5–2 foiz hissa qo'shmoqda, bu esa iqtisodiyotning innovatsion yo'lga o'tishida moliya sektori, ayniqsa to'lov tizimlarining rolini kuchaytirmoqda. Markaziy bankning 2024-yil yakuniy hisobotiga ko'ra, mamlakatdagi naqd pulsiz to'lovlar hajmi 715 trillion so'mga yetgan, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 3,5 baravar ko'pdir. Shuningdek, elektron tranzaksiyalar ulushi umumiy to'lovlar tarkibida 78 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2018-yilda atigi 29 foizni tashkil etgan edi. Mazkur raqamlar milliy to'lov tizimining raqamli transformatsiyasi tez sur'atlarda kechayotganini tasdiqlaydi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, milliy to'lov infratuzilmasining islohotlari ham chuqurlashmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda Uzcard va HUMO milliy to'lov



tizimlari, shuningdek, Payme, Click, Oson, Apelsin, ZoodPay kabi to'lov tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. 2025-yil 10 oylik holatiga ko'ra, mamlakatda 44 ta litsenziyaga ega to'lov tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda, ularning umumiy tranzaksiya hajmi esa 120 trillion so'mdan ortiqni tashkil qilgan. Fintech sektorining rivojlanishi raqamli moliya xizmatlari qamrovini kengaytirib, tijorat banklari bilan yangi hamkorlik modellarini shakllantirmoqda.

Tijorat banklarining transformatsiya jarayoni nafaqat an'anaviy bank faoliyatining raqamli platformalarga ko'chirilishini, balki tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlarning mijozlar bilan o'zaro aloqalarini tubdan kuchaytirishni ham taqozo etmoqda. Zamonaviy raqamli muhitda mijozlar "istalgan vaqtda va istalgan joyda" tamoyili asosida xizmat ko'rsatishni talab qilmoqda va bank xizmatlari sifatiga shu mezonlar orqali baho bermoqda. Ushbu yangi talablar banklardan innovatsion yechimlarni joriy etish, axborot xavfsizligini mustahkamlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish hamda texnologik savodxonligi yuqori bo'lgan mijozlar ehtiyojini tezkor qondirishni talab etadi.

1-jadval. ATB "Biznesni rivojlantirish banki"ning kredit turlari bo'yicha tahliliy ma'lumoti¹ mln. so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
1	Ipoteka kreditlar	1 101 650	2 065 230	2 270 871	1 189 728	938 651
2	Mikro qarzlar	22 461	398 680	405 862	475 933	807 930
3	Avtokreditlar	7 350	2 189	18 908	27 259	658 793
4	Ta'lim kreditlari	361	7 094	59 295	79 447	56 516
5	Iste'mol kreditlari	10 401	4 769	1 772	19 674	5 180

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"ning 2020-2024 yillar davomidagi kredit portfeli tarkibi va dinamikasi tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarining chuqurlashib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Mazkur davrda bankning chakana kreditlash yo'nalishlari bo'yicha kuzatilgan o'zgarishlar bankning strategik ustuvorliklari, raqamli xizmatlarni rivojlantirish sur'ati hamda mijozlar talablari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, ipoteka kreditlari 2020-2022-yillarda sezilarli darajada o'sib borib, 2022 yilda 2 270 871 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-2024 yillarda ushbu segment keskin qisqargan. Bu holat ipoteka bozorida tartibga solish mexanizmlarining o'zgarishi, subsidiya siyosatining qayta ko'rib chiqilishi hamda bankning ipoteka jarayonlarida raqamlashtirish darajasining yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar ipoteka yo'nalishi bo'yicha transformatsiya jarayonini chuqurlashtirish, arizalarni ko'rib chiqish jarayonini avtomatlashtirish va mijozlar uchun masofaviy xizmatlarni kengaytirish zarurligini anglatadi.

Mikroqarzlar segmenti esa keskin o'sish tendensiyasini ko'rsatib, 2020-yildagi 22 461 mln. so'mdan 2024-yilda 807 930 mln. so'mga yetgan. Bunday o'sish bankning chakana xizmatlar bozoriga faol integratsiyalashuvini, fintech yechimlardan samarali foydalanilayotganini hamda mijozlarning qisqa muddatli likvidlik talabiga mos mahsulotlar taklif etilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu yo'nalish tijorat banklari transformatsiyasining ijobiy va muvaffaqiyatli yo'nalishlaridan biri bo'lib, mikroqarzlar xizmatlarida raqamli platformalarning joriy etilishi kreditlarni tezkor tasdiqlash va masofadan turib rasmiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi.

Avtokreditlar bo'yicha kreditlash hajmi ham 2020-yildagi 7 350 mln. so'mdan 2024-yilda 658 793 mln so'mgacha o'sib, bankning avtomobil savdo platformalari va dilerlik markazlari bilan integratsion hamkorlikni kuchaytirgani, kredit rasmiylashtirish jarayonlarini raqamlashtirgani va onlayn xizmatlarga bo'lgan talab ortganini anglatadi. Ushbu segmentdagi o'sish bank ekotizim yaratish strategiyasining amaliy natijalaridan biri sifatida baholanadi.

Ta'lim kreditlari bo'yicha 2020-2023-yillarda o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024 yilda ushbu yo'nalish pasayish tendensiyasini ko'rsatgan. Bu holat davlat tomonidan ta'lim tizimiga oid moliyalashtirish mexanizmlarining o'zgarishi, bank resurslarining boshqa yuqori talabga ega segmentlarga qayta yo'naltirilishi hamda ta'lim kreditlari bo'yicha to'liq raqamli platformalarning sust rivojlanganligi bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishda raqamlashtirish darajasini oshirish bankning ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan xizmatlar portfelini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iste'mol kreditlaridagi beqarorlik esa ushbu segmentning kuchli raqobat bosimi ostida ekanini ko'rsatadi. 2020-yildagi 10 401 mln so'mlik hajm 2024-yilda 5 180 mln so'mgacha qisqarib, bankning mazkur yo'nalish bo'yicha transformatsiya strategiyasini yetarli darajada takomillashtirmaganini anglatadi. Mijozlarning fintech xizmatlariga o'tishi, onlayn iste'mol kreditlari bozorining kengayishi hamda kredit scoring tizimlarining avtomatlashtirilmaganligi bankning ushbu segmentdagi pozitsiyasini zaiflashtirgan omillardandir.

¹ ATB "Biznesni rivojlantirish banki"ning moliyaviy hisobotlari orqali muallif tomonidan tuzildi



Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ATB "Biznesni rivojlantirish banki"ning kredit portfeli tarkibidagi o'zgarishlar bankning transformatsiyaga moslashuvchanligini aks ettiradi. Mikroqarzarlar va avtokreditlar segmentida sezilarli o'sish bankning raqamli ekotizimni shakllantirish bo'yicha muvaffaqiyatli strategiya yuritayotganini ko'rsatgan bo'lsa, ipoteka, ta'lim va iste'mol kreditlari yo'nalishida transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, kredit jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, mijozlar tajribasini shaxsiylashtirish va fintech hamkorlikni kengaytirish zarurati mavjud. Shu tariqa, tijorat banklarini transformatsiyalash sharoitida chakana xizmatlarni rivojlantirishning asosiy yo'llari sifatida kreditlarning masofaviy boshqaruvi, onlayn skoring tizimlarini takomillashtirish, platforma asosidagi xizmatlarni kengaytirish va raqamli marketing strategiyalarini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari transformatsiyasining mohiyati aynan ushbu jarayonlarga moslashuvchanlikda namoyon bo'ladi. Agar banklar chakana segment vakillarining o'zgaruvchan ehtiyojlarini aniqlay olmasa yoki ularga mos raqamli xizmatlarni taqdim etmasa, mijozlarning raqobatchi banklarga o'tib ketishi ehtimoli kuchayadi.

2-jadval. Banklarni transformatsiyalash sharoitida chakana xizmatlarini rivojlantirish yo'llari²

№	Rivojlantirish yo'li	Mazmuni
1	Raqamli kreditlash tizimini joriy etish	Kredit arizalarini onlayn qabul qilish, avtomatik skoring, masofaviy tasdiqlash va monitoring orqali xizmatlar tezligini oshirish.
2	Mikrokreditlash platformalarini yaratish	Uzoq hududlarda yashovchi va kam ta'minlangan aholi uchun soddalashtirilgan, mobil ilova asosidagi kichik kredit xizmatlarini taklif etish.
3	Mahalliy moliyaviy ekotizimlar bilan integratsiya	To'lov tizimlari, savdo platformalari, sug'urta xizmatlari bilan bog'lanish orqali mijozlar uchun yagona raqamli moliyaviy ekotizim yaratish.
4	Kiberxavfsizlikni kuchaytirish	Ma'lumotlarni shifrlash, ko'p faktorli autentifikatsiya, xatar monitoringi va sun'iy intellekt asosidagi himoya mexanizmlarini joriy etish.
5	Mijoz tajribasini shaxsiylashtirish	Big Data, AI va analitika asosida mijoz ehtiyojiga mos mahsulot tavsiyalarini shakllantirish va individual xizmat ko'rsatish.
6	Raqamli marketing va moliyaviy savodxonlikni oshirish	Kredit shartlari, afzalliklari, xavfsizlik jihatlarini tushuntiruvchi raqamli reklama, video, interaktiv materiallar orqali aholiga to'liq ma'lumot berish.
7	Mobil bank xizmatlarini kengaytirish	Mobil ilovalar orqali kredit rasmiylashtirish, to'lovlarni amalga oshirish, maslahat olish kabi funksiyalarni takomillashtirish.
8	Avtomatlashtirilgan kredit skoring tizimlari	Sun'iy intellekt asosida mijozlarning kreditga layoqatligini tez va aniq baholash orqali kredit risklarini kamaytirish.
9	Filialarsiz xizmat ko'rsatish modeliga o'tish	Onlayn bank, virtual filiallar, chatbotlar va masofaviy maslahat xizmatlari orqali xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish.
10	Ekotizim asosida chakana xizmatlarni rivojlantirish	Bank, fintex, savdo, transport, ta'lim va kommunal tizimlarni birlashtirgan ekotizim orqali mijozga kengaytirilgan moliyaviy xizmatlar taqdim etish.
11	Blockchain asosida xavfsiz tranzaksiyalar	Tranzaksiyalarda oshkorlik, tezlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida blockchain texnologiyalarini bank amaliyotlariga integratsiya qilish.
12	Kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish	Ipoteka, iste'mol, avtokredit, ta'lim kreditlari, mikroqarzarlar bo'yicha moslashuvchan shartlar bilan yangi raqamli mahsulotlar yaratish.

O'zbekistondagi banklar Xalqaro moliya institutlari yoki xorijiy FinTechs kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda xorijiy tajriba va standartlarga mos holda o'z faoliyatini transformatsiya qilishda ilg'or raqamli texnologiyalarni jalb qilishda aholi mentaliteti va savodxonligini ham inobatga olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarini transformatsiyalash jarayonida chakana xizmatlar, xususan, kichik kreditlash tizimini yanada samarali tashkil etish zamonaviy raqamli texnologiyalarni kompleks joriy etishni talab etadi. Uzoq hududlarda yashovchi kam ta'minlangan aholi qatlamining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida maxsus mikrokreditlash platformasini yaratish muhim

2 Muallif ishlanmasi



ahamiyat kasb etadi. Bunday raqamli platformalar kredit olish jarayonlarini soddalashtiribgina qolmay, balki mahalliy moliyaviy ekotizimlar – jumladan, to'lov tizimlari, sug'urta xizmatlari, masofaviy identifikatsiya tizimlari va boshqa qo'shimcha moliyaviy infratuzilmalar bilan integratsiya qilinishi orqali aholining moliyaviy inklyuziyasini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu integratsion yondashuv tijorat banklariga aholining barcha qatlamlariga tezkor, arzon va xavfsiz kredit xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Transformatsiya jarayoning yana bir muhim yo'nalishi bank mijozlarining shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilishdir. Bu jarayon kreditlash amaliyotining raqamli shakliga o'tish bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun banklar tomonidan zamonaviy shifrlash algoritmlari, ko'p faktorli autentifikatsiya, xavfga asoslangan monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan kiberxavfsizlik modullarini joriy etish zarur. Bu nafaqat mijoz ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydi, balki kreditlash jarayonining barqarorligini saqlashga, firibgarlik xavfini pasaytirishga ham xizmat qiladi. Kiberxavfsizlik choralarining kompleks qo'llanishi bankning raqamli infratuzilmasiga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi va raqamli chakana kreditlash xizmatlaridan foydalanishni rag'batlantiradi. Kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha o'tkazilgan tahlil xizmatlarning tezkorligi, aniqligi va shaffofligining sezilarli oshganini ko'rsatdi. Al asosidagi skoring tizimlari, OCR texnologiyalari va onlayn qaror qabul qilish mexanizmlari kredit berish jarayonida inson omili xatolarini kamaytirmoqda, operatsion samaradorlikni kuchaytirmoqda va kam ta'minlangan aholi qatlamining kredit resurslariga kirish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlik va raqamli infrastrukturani takomillashtirish zarurati dolzarb muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining chakana xizmatlar segmentida transformatsiya jarayonlari chuqurlashmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xizmatlarni shaxsiylashtirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish, risklarni aniqroq boshqarish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish ushbu yo'nalishning asosiy rivojlanish vektorlaridir. Kelgusida banklarning raqobatbardoshligi aynan chakana xizmatlar sifatiga, raqamli ekotizimlarning takomillashuviga, va mijoz ehtiyojlariga mos innovatsion yondashuvlarni qo'llay bilishga bog'liq bo'lib qoladi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan raqamli kredit mahsulotlarining jozibadorligini oshirish uchun aholiga ushbu xizmatlarning mazmuni, afzalliklari va xavfsizlik jihatlari haqida batafsil ma'lumot berish muhimdir. Kreditning foiz stavkasi, to'lov grafigi, muddatlari, jarimalar mexanizmi va boshqa barcha muhim talablari haqida ochiq, aniq va tushunarli axborot taqdim etilishi mijozlarning ongli kredit qarorlarini qabul qilishiga ko'maklashadi. Raqamli reklama, elektron broshyuralar, mobil ilovalardagi interaktiv tushuntirishlar hamda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish banklarning chakana xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning "Tijorat banklari eng zamonaviy xizmatlarni ko'rsatib, har bir mijozning ko'ngliga yo'l topa oladigan bo'lishi kerak" mavzusidagi nutqi. <https://kun.uz/32726500>
2. Кешенкова Н.В. Развитие розничных банковских услуг в условиях формирования инновационной экономики: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Моек. гос.ун-т экономики, статистики и информатики - Москва, 2013. - 27 с.
3. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012. - 183 с
4. Тавасиева А.М. «Дополнительные операции для клиентов» Москва «Ф и С» 2005 г. 13 стр.
5. А.Н.Иванов «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Москва «Ф и С» 2002 г. 176 стр.
6. Е.Ф. Жуков «Банковское дело» М.: ЮНИТА-ДАНА 2007 г. 250 стр.
7. «Банковское дело» 2008 г. Питер Учебник для вузов 2-е издание Г.Н.Белоглазовой, Л.П.Крошвецкой 27 стр., А.М. Тавасиева «Дополнительные операции для клиентов» Москва 2005 г. «Ф и С» 13 стр.
8. С.В.Галицкая «Деньги, кредит, банки». Полный курс. Москва изд. «Эксмо» 2008г 253 стр.
9. Закиров Ш.З. Развитие рынка банковских розничных услуг: : дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сам. гос. эконом. ун-т - Самара, 2008. - 185 с.
10. Кешенкова Н.В. Развитие розничных банковских услуг в условиях формирования инновационной экономики: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Моек. гос.ун-т экономики, статистики и информатики - Москва, 2013. - 27 с.
11. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012. - 183 с
12. Винокурова Е.А. Методическое обеспечение анализа кризисных состояний розничного бизнеса коммерческого банка: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.12/ Йошкар-Ола - 2011. - 20 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>